

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**19.00.06 – YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA. RIVOJLANISH  
PSIXOLOGIYASI. IXTISOSLIGI FANIDAN KIRISH IMTIHONI**

**DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**Tuzuvchilar:**

P.f.d. (DSc), professor A.M.Nazarov  
P.f.f.d DSc, dotsent F.F.Ganjiyev

**Taqrizchilar:**

P.f.d. (DSc) prof. D.S.Xalimov  
P.f.n. dots. M.N.Usmanova

*Dastur Psixologiya kafedrasi yig'ilishining 2025-yil 28-oktyabrdagi  
9-sonli majlisida muhokama qilingan.*

*Dastur Buxoro davlat universiteti kengashining 2025-yil 28-oktyabrdagi  
3-sonli majlisida tasdiqlandi.*

## KIRISH

“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” fani bo'yicha tuzilgan dastur talabalarning olam, jamiyat va insonning o'rganishi psixologik bilimlarga zaruratning mavjudligi; ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda psixologik qonuniyatlarni o'rganish ehtiyojining mavjudligi; inson psixologiyasining umumiy psixologik qonuniyatlarini, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglashi, olamni psixologik tahlili, psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligini xarakterlaydi.

XX asrning oxirida ijtimoiy hayotimizdagi inqilobiy o'zgarishlar, mustaqillik, respublikamizda demokratiyaning tantanasi uchun kurash, huquqiy davlat tuzishga intilish insonparvar psixologiyaning qonuniyatlari va ilmiy materiallarini o'rganish, ulardan turmushda oqilona foydalanishni talab qiladi. Mazkur psixologiyaning g'oyalari erk sharofati, demokratik harakatlar va oshkoralikning mamlakatimizda keng quloch yoyishi tufayli ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga kirib bormoqda.

Ko'p yillar mobaynida mustaqillikka erishgunga qadar insonning haq-huquqlarini cheklashga asoslangan ijtimoiy tarbiya — xalqqa robot sifatida munosabatda bo'lishga, uni buyruqni so'zsiz bajarish va itoatkorlikka odatlantirishga qaratilgani uchun haqiqiy etnopsixologik, umumpsixologik, ijtimoiy-psixologik va psixogerontologik qonuniyatlarni fuqarolardan mutlaqo sir tutgan.

Har bir ontogenez davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z vaqtida o'zini o'zi anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini o'zi anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini o'zi his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi. Shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, ziddiyat, inqirozni rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi — nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, ideal, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni samarali shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir. Kishidagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni, iroda sifatlarini aniqlash va ularga yosh (ontogenez) psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning barcha bosqichlarida, ijtimoiylashishda uning samaradorligini oshirish ontogenez psixologiyasining qonuniyatlariga suyanmog'i zarur. Bolalar jamoasi, oila muhiti, mehnat jamoalarida shaxslararo iliq munosabatlarni shakllantirish yosh davri xususiyatlarini inobatga olishning mahsuli sanaladi. Hatto, kishining uzoq umr ko'rishi va unda ishchanlik qobiliyatining saqlanishi, istiqbol rejasi va ezgu-maqsadi bilan yashashi ham yosh xususiyatlarini hisobga olgan

holda muloqotda bo'lishning mevasidir. Umuman ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oila, tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida ontogenez psixologiyasidan foydalanish ta'lim va tarbiyaning, shaxslararo ijobiy munosabatlar o'rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

### **Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari**

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga shaxs rivojlanishning turli davrlarida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik o'zgarishlar, qonuniyatlar hamda yoshga bog'liq holda ta'lim va tarbiyani tashkil qilishning psixologik mexanizmlari borasida bilimlarni hosil qilish va amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar psixologik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarni bajaradi

### **Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi g'oyalari shakllanishi tarixi**

Mazkur psixologiya fanining sohasi alohida predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizi qadimgi yunon madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to'g'risida jahon psixologiyasi olamida turli qarashlar nazariyalar mavjud. Ularning juda keng tarqalganlari biogenetik (I.Shtern), sotsiogenetik (K.Levin), bixevioristik (E.Torndayk), psixoanalitik (Z.Freyd) nazariyalaridir. Shuningdek, ilmiy metodlarga asoslanib tadqiqotlar olib borgan olimlar ham juda ko'p. Ular to'g'risida keyingi sahifalarda batafsil to'xtalgan.

### **Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi tadqiqotning metodologik muammolari**

Ilmiy bilim rivojlanishining zamonaviy bosqichida metodologik muammolar ahamiyatining o'sishi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tug'risida tushuncha. Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasida talablar. Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi tadqiqotning ikkita asosiy tipi. Eksperimental va korrelyatsion. Ma'lumotlarning ishonchligini va sharti masalasini ochish xususiyati.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotning asosiy metodlari. Kuzatish metodi. suhbat metodi. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Proektiv metodlar. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda to'g'ri va noto'g'ri metodlarning munosabati. Ijtimoiy psixologiyada «test» qo'llashni sharoitlari. Ijtimoiy psixologiyada eksperimentlarning asosiy tiplari. Ijtimoiy psixologiyada o'lchash muammosi.

## **Ilmiy bilimlar tizimida Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasining tutgan o'рни**

Ontogenez psixologiyasi - inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu taraqqiyotning bosqichlari to'g'risidagi fandir.

Ontogenez psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

### **Rivojlanish psixologiyasi faniga kirish**

Rivojlanish psixologiyasi va yosh davrlar psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi amaliy psixologiya sohasi. Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi. Rivojlanish psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Rivojlanish psixologiyasining metodlari. Rivojlanish tushunchasi.

### **Rivojlanish psixologiyasini shakllanishi**

Rivojlanish psixologiyasini shakllanishining tavsifiy bosqichi. Rivojlanish g'oyasini yuzaga kelishi. Ta'lim amaliyoti bilan bog'liq yosh davrlarini differensiyasi. Eksperimental amaliyot va fan sifatida rivojlanish psixologiyasini shakllanishi.

### **Endogen va ekzogen yo'nalishlarda rivojlanish nazariyasi**

Kamol topishning nazariyasi ilk nazariyasi K.Byuler bo'yicha rivojlanishning uch bosqichli nazariyasi. X.Vernerning ortogenetik konsepsiyasi. A.Buzmanning rivojlanish nazariyasi. Rivojlanishni tushuntirishning biogenetik yo'nalishi (S.Xoll konsepsiyasi). Rivojlanish borasidagi tadqiqotlarning normativ yo'nalishi (A.Gezell, L.Termen nazariyasi). V.Shternning rivojlanishni ikki omilli konvergensiya nazariyasi. Dastlabki bixeviorizm nazariyasining sharhi. B.Skinner nazariyasi. S.Biju va D.Baerning rivojlanish nazariyasi. R.Sirs nazariyasi.

### **Psixologik maktablarda rivojlanish nazariyalari**

Psixoanaliz rivojlanish talqini. Z.Freydning klassik psixoanalizi. Bolalik psixoanalizini shakllanishi. Ijtimoiylashuv muammosi. Kognitiv yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi. Tarixiy-madaniy yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi.

### **Rivojlanishning yosh bosqichlarini psixologik tahlili. Go'daklik davri**

Bolalik fenomeni. Bolalik chegaralari. Prenatal rivojlanish. Tug'ilishning psixologik jihatlarini. Tug'ilishga nisbatan tanqidiy qarash. Go'daklik davriga umumpsixologik tavsifnoma. Yosh chegaralari. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati. "Jonlanish kompleksi" va uning belgilari. Go'daklik davrida sensor va motor rivojlanish. Go'daklik davrida asosiy psixologik yangilik. Hayotini birinchi yilidagi inqiroz.

### **Ilk bolalik davri**

Ilk bolalik davrida asosiy yangiligi va rivojlanishining ijtimoiy vaziyati. Predmetli faoliyatni shakllanishi. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarini rivojlanishi. Bolani kattalar bilan muloqotini rivojlanishi. O'zini o'zi anglash elementlarini shakllanishi. Bolaning emotsional sohasi. Axloqiy xulq-atvor elementlarini shakllanishi.

### **Maktabgacha yosh davri**

Maktabgacha bolalik davomida rivojlanishni ijtimoiy vaziyatini o'zgarishi. O'yin va faoliyatning boshqa turlari. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot. Maktabgacha tarbiya yoshida bilish jarayonlarini rivojlanishi. Maktabgacha tarbiya yoshida shaxsini rivojlanishi.

### **Kichik maktab yosh davri**

Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-sharoitlari. Yetakchi faoliyat sifatida o'quv faoliyatini shakllanishi va ta'lim motivatsiyasini shakllanishi. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarini taraqqiyoti. Kichik maktab yoshi shaxsini rivojlanishi. Motivatsion-ehtiyojli sohasini shakllanishi. Emotsional-irodaviy sohasini rivojlanish xususiyatlari. Refleksiyani boshlang'ich shakli. O'zini o'zi baholashni shakllanishi. Axloqiy rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshida ijtimoiy hayot: o'qituvchilar va tengdoshlari bilan muloqot.

### **O'smirlik davri**

O'smirlik davriga umumpsixologik tavsifnoma. Psixologiyada o'smirlik tadqiqotlari. O'smirlikda "kattalik" va "bolalik" dialektikasi. Yosh chegaralari. O'smirlik inqirozi. O'smirlik davrida faoliyatning asosiy turlari. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot. Intellektual qiziqishlar va nazariy tafakkur elementlarini shakllanishi. O'smir shaxsini xususiyati. Kattalik ko'rinishlari. O'zini o'zi anglashni shakllanishi. Psixoseksual rivojlanish. Identiklikni shakllanishi.

### **O'spirinlik davri**

O'spirinlik inson hayot yo'li tizimidagi o'rni. O'spirinlik davrini psixologik nazariyalari. Yosh chegaralari. Intellektual sohani rivojlanishi. Dunyoqarashni shakllanishi. Emotsional rivojlanish. O'spirinlik davrida shaxsini rivojlanish xususiyatlari. "Men-siymosi" va barqaror o'zini o'zi anglashni shakllanishi. O'spirinlik davrida inqiroz muammosi. O'spirinlik davrida ijtimoiy faollik.

### **Yoshlik davri**

Yoshlik ijtimoiy-tarixiy kategoriya sifatida. Yosh chegaralari. Yoshlik davrida shaxs rivojlanishi. Hayot mazmunini mo'ljalga olish va hayotiy qadriyatlar tizimini namoyon bo'lishi. Individual hayot uslubini shakllanishi. Yoshlik davri inqirozi. Yoshlik davrida ijtimoiy faollik. Yangi ijtimoiy mavqeiga erishishi va kasbiy o'zini o'zi anglash.

### **Yetuklik davri**

Yetuklikning umumpsixologik tavsifnomasi. Yosh chegarasi. Yoshga yoshdan o'tishdagi muammolar. Yetuklik davridagi inqiroz. Yetuk shaxs tavsifnomasi. Tanlagan kasbiy faoliyat sohasida o'zini o'zi faollashtirish. Yetuklik davrida mas'uliyat va ijtimoiy faollik sohasini kengayishi.

### **Keksayish va keksalik**

Keksayish va keksalik davriga umumpsixologik tavsifnoma. Yosh bosqichlari va chegaralari. Gerontogenezning biologik jihatlari. Keksayish va keksalikda psixologik xavotirlik. Psixik funksiyalar funksiyalashuvidagi o'zgarishlar. Keksalik davrida ijtimoiy faollik tizimini o'zgarishi. Yolg'izlik muammosi. Keksalik davrida emotsional sohaning xususiyati. Kexsa inson shaxsining xususiyati. Keksalikda shaxsiy yangiliklar. Motivatsion tuzilishini o'zgarishi. Kelajakdagi vaqtni o'zgarishi.

### **Asosiy qism**

1. Rivojlanish psixologiyasi va yosh davrlar psixologiyasi.
2. Rivojlanish psixologiyasi amaliy psixologiya sohasi.
3. Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi.
4. Rivojlanish psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Rivojlanish psixologiyasining metodlari. Rivojlanish tushunchasi.
5. Rivojlanish psixologiyasini shakllanishining tavsifiy bosqichi. Rivojlanish g'oyasini yuzaga kelishi.
6. Ta'lim amaliyoti bilan bog'liq yosh davrlarini differensiyasi.
7. Eksperimental amaliyot va fan sifatida rivojlanish psixologiyasini shakllanishi.
8. Rivojlanish borasidagi tadqiqotlarning normativ yo'nalishi (A.Gezell, L.Termen nazariyasi). V.Shternning rivojlanishni ikki omilli konvergensiya nazariyasi.
9. Psixoanaliz rivojlanish talqini. Z.Freydning klassik psixoanalizi. Bolalik psixoanalizini shakllanishi. Ijtimoiylashuv muammosi.
10. Kognitiv yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi. Tarixiy-madaniy yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi.
11. Bolalik fenomeni. Bolalik chegaralari. Perinatal rivojlanish. Tug'ilishning psixologik jihatlari.
12. Tug'ilishga nisbatan tanqidiy qarash. Go'daklik davriga umumpsixologik tavsifnoma. Yosh chegaralari.
13. Go'daklik davrida asosiy psixologik yangilik. Hayotini birinchi yilidagi inqiroz.
14. Ilk bolalik davrida asosiy yangiligi va rivojlanishining ijtimoiy vaziyati. Predmetli faoliyatni shakllanishi.
15. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarini rivojlanishi. Bolani kattalar bilan muloqotini rivojlanishi.

16. O'zini o'zi anglash elementlarini shakllanishi. Bolaning emotsional sohasi. Axloqiy xulq-atvor elementlarini shakllanishi.
17. Maktabgacha bolalik davomida rivojlanishni ijtimoiy vaziyatini o'zgarishi. O'yin va faoliyatning boshqa turlari.
18. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot.
19. Maktabgacha tarbiya yoshida bilish jarayonlarini rivojlanishi.
20. Maktabgacha tarbiya yoshida shaxsini rivojlanishi.
21. Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-sharoitlari.
22. Yetakchi faoliyat sifatida o'quv faoliyatini shakllanishi va ta'lim motivatsiyasini shakllanishi.
23. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarini taraqqiyoti. Kichik maktab yoshi shaxsini rivojlanishi.
24. Refleksiyani boshlang'ich shakli. O'zini o'zi baholashni shakllanishi. Axloqiy rivojlanish xususiyatlari.
25. O'smirlikda "kattalik" va "bolalik" dialektikasi. Yosh chegaralari. O'smirlik inqirozi.
26. O'smirlik davrida faoliyatning asosiy turlari. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot.
27. Intellektual qiziqishlar va nazariy tafakkur elementlarini shakllanishi. O'smir shaxsini xususiyati. Kattalik ko'rinishlari.
28. O'zini o'zi anglashni shakllanishi.
29. O'spirinlik inson hayot yo'li tizimidagi o'rni.
30. O'spirinlik davrini psixologik nazariyalari.
31. Dunyoqarashni shakllanishi.
32. "Men-siymosi" va barqaror o'zini o'zi anglashni shakllanishi. O'spirinlik davrida inqiroz muammosi.
33. Yoshlik davri inqirozi. Yoshlik davrida ijtimoiy faollik.
34. Yangi ijtimoiy mavqeiga erishishi va kasbiy o'zini o'zi anglash.
35. Yosh chegarasi. Yoshga yoshdan o'tishdagi muammolar.
36. Tanlagan kasbiy faoliyat sohasida o'zini o'zi faollashtirish.
37. Keksayish va keksalik davriga umumpsixologik tavsifnoma.
38. Yosh bosqichlari va chegaralari.
39. Psixik funksiyalar funksiyalashuvidagi o'zgarishlar.
40. Keksalik davrida ijtimoiy faollik tizimini o'zgarishi.

## **Baholash mezonlari**

1) talabgor javobi 86-100 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan masala mohiyati to'liq adekvat anglanishi;
- javob berishda mustaqil va ijodiy fikrlanishi;
- qo'yilgan masala boshqa masalalar bilan bog'lab tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masalaga doir ilmiy va hayotiy misollar keltirish;
- savoldagi masala yuzasidan yirik tadqiqotchi olimlar mulohazalarining esga olinishi;
- javob berishda ilmiy kategoriya va atamalar bilan erkin mulohaza yuritish lozim.

2) talabgor javobi 71-85 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan masala mohiyati to'liq adekvat anglanishi;
- javob berishda ko'proq reproduktiv yondashuv ustun bo'lishi;
- qo'yilgan masala boshqa yondosh masalalardan ayri holda tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan faqat hayotiy misollar keltirilishi;
- savoldagi masala bo'yicha faqat muayyan darslik va o'quv adabiyotlari mualliflari fikrining esga olinishi;
- javob berishda ilmiy atamalardan erkin foydalanmaslik, ularning faqat bir ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'linishi kerak.

3) talabgor javobi 56-70 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan masala birovning yordamidan keyin ham yetarlicha adekvat anglanmasligi;
  - javob berishda muayyan manbaga qattiq bog'lanib qolinishi;
  - qo'yilgan masalaning boshqa masalalar bilan aloqasi haqidagi yordamchi ishoralarga e'tiborsizlik kuzatilishi;
  - savol mazmunidagi masala yuzasidan bildiriladigan mulohazalar faqat kundalik kuzatishlar natijalari bilan chegaralanishi;
  - savoldagi masala bo'yicha qaysi mualliflar mulohazasiga murojaat etganlikni bilmaslik kuzatilishi;
  - javob berishda ilmiy atamalarning faqat ommalashgan ma'nolarining tushunilishi, ularning chuqur ilmiy mohiyatini anglamaslikning aniqlanishi zarur.
- Boshqa barcha holatlarda talabgor javobi 55 va undan past ball bilan baholanishi to'g'ri bo'ladi.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. - Тошкент, Ношир., - Т 2010.
2. Ғозиев Е. Педагогик психология асослари. Toshkent, Universitet, 1997. – 80 b.
3. Ғозиев Е. Олий мактаб психологияси. Toshkent, 2006. – 164 b.
4. Ғозиев Е. Umumiy pсихология. Toshkent, 2010. – 544 b.

5. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972. – 246 p.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
7. Arnett J.J. Emerging Adulthood: The Winding Road from the Late Teens through the Twenties. – New York: Oxford University Press, 2004. – 280 p.
8. Damon W., Lerner R.M. Handbook of Child Psychology: Theoretical Models of Human Development. – 6th ed. – New Jersey: Wiley, 2006. – 1056 p.
9. Berk L.E. Development Through the Lifespan. – 7th ed. – Boston: Pearson, 2018. – 864 p.
10. Santrock J.W. Life-Span Development. – 17th ed. – New York: McGraw-Hill, 2019. – 752 p.
11. Дўстмухаммедова Ш.А., З.Т.Нишонова, С.Х.Жалилова, Ш.Т.Каримова, Ш.Т.Алимбаева “Ёш даврлари ва педагогик психология” – Тошкент. Фан ва технологиялар Марказининг босма хонаси. 2013. – 220 б.
12. Давлетшин М.Г. ва бошқалар «Ёш даврлари ва педагогик психология» - Т. - ТДПУ, 2004.
13. Штерн А.С. «Введение в психологии» - М.: Академия Спб 2002.
14. David G. Mers “Psychology”. NY, 2010. WORTH PUBLISHERS.
15. Абрамова.Г.С. «Возрастная психология»: Учебное пособие для студентов вузов. - М., “Изд-во” 2001.- 621 с.
16. Криско В.Г. «Психология и педагогика» - М.: Харвест – АСТ 2000.
17. Зимняя.И.А «Педагогическая психология»: Учебник для вузов. – М., “Изд-во” 2002. – 384 с.
18. Реан А.А., Бордовская.Н, Розум.С «Психология и педагогика» СПб.: - Питер 2007.
19. Е.Е.Сапогова Психология развития человека Аспект Пресс 2005 г.
20. [www. tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
21. [www. pedagog.uz](http://www. pedagog.uz)
22. [www. ziyonet.uz](http://www. ziyonet.uz)

**Kafedra mudiri**



**A.M.Nazarov**